

**YOSH AVLODNING AXLOQIY-MA'NAVIY RIVOJLANISHIDA  
MULTIPLIKATSIYANING O'RNI**

**Nazirova Z.X.,**

*1 kurs magistranti*

*Kamoliddin Behzod nomidagi*

*Milliy rassomlik va dizain instituti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada jahon animatsion kinematografiya tarixidagi xalq ertaklarining o'rni va ular asosida yaratilgan multfilmlar tahlil etiladi. Ertaklar asosida yaratilgan animatsiyalarning o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga egaligi yoritilib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Multiplikatsiya, animatsiya, animatsion filmlar, ertak qahramonlari, obraz.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается роль народных сказок в истории мировой анимационной кинематографии и созданных на их основе мультфильмов. В основном Проанализирована роль анимации, созданных по мотивам народных сказок, в воспитании подрастающего поколения.*

**Ключевые слова:** *Мультипликация, анимация, анимационные фильмы, герои сказок, образ.*

**Annotation:** *In this article investigated the role of folk tales in the history of world animation cinematography and cartoons created on their basis. It mainly highlights how important animations based on folk tales are in the education of the younger generation.*

**Keywords:** *Animation, fairy tale characters, image*

**KIRISH.** Multiplikatsiya – san'at turlari orasidagi eng kenja vakil hisoblanadi. San'atning bu turi hozirgi paytda katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Kinematograf – insoniyatning XX asrdagi odamlarning dunyoqarashiga ulkan ta'sir ko'rsatgan eng olamshumul kashfiyotlaridan biridir. Uning yoshlar auditoriyasi uchun mo'ljallangan turi multiplikatsion kinodir.

Multiplikatsiya (lotincha “multiplication” – ko'payish, ko'paytirish) – alohida sur'atlar yoki sahnalari kadrma-kadr tasvirga olish natijasida yuzaga keladigan san'at turidir. Dunyoda “Multiplikatsiya” atamasi bilan bir qatorda “animatsiya” (lotincha “animate”- jonlantirish) atamasi ham keng qo'llaniladi.

Kino nafaqat san'at, balki sanoat va tijorat mahsuloti hamdir. Animatsion film, multiplikatsion film yoki multfilm – kino san'ati turi. Kino asarlar chizilgan (rasmli multiplikatsiya) yoki hajmiy (hajmiy multiplikatsiya) obyektlar harakatining ketma-ket fazalarini suratga olish yo'li bilan tayyorlanadi.

Multiplikatsiya kinematografiya ixtiro etilguniga qadar bunyod etilgan. Rasmli kino birinchi marta fransuz rassomi va muhandisi Emil Reynaudning ancha mukammalroq moslamasi orqali 1892-yilda namoyish qilingan. Kadrma-kadr suratga olish yo'sini bo'yicha ishlangan dastlabki tasvirli filmlar muallifi – Emil Kol.

Kinematografik multiplikatsiyaning asosiy usuli total animatsiyani tashkil etishdir. Animatsiya kinematografiyaning muhim bir qismiga aylanib, tabiiy ravishda animatsion tasvirlarni suratga olish uchun standart kinoplyonkalardan foydalanildi.

**ASOSIY QISM.** Ma'lumki, animatsiya - yosh avlodning badiiy va estetik tarbiyasida, ularda dunyoqarash o'ktamligini shakllantirishda, milliy istiqlol g'oyalarini tarannum etishda beqiyos imkoniyatlarga egadir. Bola hali savodi chiqmasdanoq televizor yoki kompyuter orqali multfilm ko'radi. Unda aks etgan mo'jaz voqealar, qahramonlar bolaning murg'ak qalbida yaxshilik va yomonlik, halollik va mug'ombirlik haqidagi ilk tasavvurlarini uyg'otadi, qolaversa, munosabatga chorlaydi.

Ana shunday sifatlar mujassam etgan ertaklarga animatsion film ijoklari doimo murojaat etganlar. Ayni shu borada ertaklar mavzusiga to'xtalib o'tamiz. Bilamizki, ertaklar har bir millatning, xalqning o'sha yurtning tarixini, ma'naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e'tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarni, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimiva tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi. Shunday ekan, bolalarning tarbiyasida ertakning foydasi ham kattadir.

Multiplikatsion filmlarning tarixiga nazar solib shuni aytish kerakki, Multfilmlar bolalar uchun maxsus yaratilib, ular ongni rivojlantiruvchi psixologik badiiy asardir. To'g'ri g'oyali ertaklar asosida yaratilgan animatsion filmlar bolada haqiqiy estetik kechinmalar, his-tuyg'ularni yuzaga keltiradi. Bola aynan shunday multfilmni tomosha qilar ekan, o'zini bosh qahramon nigohida ko'radi. Bu maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. G'oyasi butun multfilmlarning bosh qahramoni orqali bolada turli xildagi his-tuyg'ular tug'iladi. Masalan, o'ziga ishonch, mard-jasurlik, mehribon bo'lish va hokazo. Bundan tashqari, multfilm bolaning ichki iste'dodi va qiziqishlarini shakllantirishiga ham turtki bo'ladi.

Jumladan, jahon xalq ertagi asosida suratga olingan "Bo'ri va yeti uloqcha" multfilm orqali bolaning kattalarga quloq solish kerakligini o'rgatish mumkin. Yosh avlodning bugungi kunda hayotidagi ko'plab uchraydigan muammolari aynan kattalarning fikriga quloq solmasliklari natijasidir. Bir qarashda sodda ko'rilgan bu multfilm yordamida, jajji bolajonlarning to'g'ri tarbiyasiga qadam qo'ygan bo'lamiz.



“Bo`ri va yeti uloqcha”. 1957. Kinostudiya «Союзмультфильм»

Shunday ertaklar qatorida rus xalq ertaklari asosida yuzaga kelgan “Sholg`om” nomli ertak badiiy talqinini misol qilishimiz mumkin. Mazkur ertak asosida yaratilgan multfilm bolalarda boshqalarga yordam berish va yaqinlaringizni qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lish muhimligini o'rgatadi. Birgalikda ajoyib natijalarga erisha olish mumkinligini ko'rsatadi. Sholg'omni olib tashlash yoki hayotdagi qiyinroq muammolarni hal qilish bo'ladimi, birgalikdagi sa'y-harakatlar imkonsiz narsani amalga oshirish mumkinligini badiiy vositalar hamda tasvirlar orqali bolalar qalbiga muhrlaydi.

**XULOSA.** O'ziga xos tarbiya vositasi bo'lgan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Ayniqsa, ular asosida yaratilgan multfilmlar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantiradi. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib, voyaga yetganidan keyin u ezgu ishlarga odatlanadi. O'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi, ularning ma'naviy kamolotiga ular tomosha qilayotgan multfilmlarni nechog'lik ta'sir o'tkazishini bilgan holda, bolajonlar tomosha qilayotgan animatsiyalar sifati va saviyasiga e'tibor berish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Mahmudov “Animatsiyada tasviriy harakat asoslari”. – Toshkent, 2020
2. Xalq og'zaki ijodi.
3. Bolalar adabiyoti (Darslik-majmua). “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. - Toshkent, 2008
4. Иванова С.М. «Воспитание полноценного восприятия киноискусства младшими подростками. - Москва, 1978